

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR JISMONIY TARBIYA MASHG'ULOTI  
JARAYONIDA INKLYUZIV TA'LIM SAMARADORLIGI**

**Botirova Sayyora Nurullayevna**

*O'zbekiston Davlat Jismoniy tarbiya va Sport Universiteti*

*Adaptiv sog'lomlashtirish, jismoniy - tarbiya va sport yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

[botirovasayyora4@gmail.com](mailto:botirovasayyora4@gmail.com)

*Ilmiy raxbar: p.f.dok., professor Kerimov Fikrat Azizovich*

**Annotatsiya:** Maqlada bugungi kunda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inkyuziv ta'lim yo'nalishida kichik yoshdagi bolalarning jamiyatga moslashuvi va ularning sog'lomlashishiga, "Men konsepsiysi"ni shakillantirishning samara berayotgan yo'nalish ekanligi to'g'risida so'z yuritilgan.

**Kalit so'zlari:** Adaptatsiya, inkyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, metod, ta'lim,

**EFFECTIVENESS OF INCLUSIVE EDUCATION IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN**

**Botirova Sayyora Nurullayevna**

*Uzbekistan State University of Physical Education and Sports*

*2nd stage master's student of adaptive healing, physical education and sports*

[botirovasayyora4@gmail.com](mailto:botirovasayyora4@gmail.com)

*Scientific supervisor: doctor of pedagogic sciences, professor Kerimov Fikrat Azizovich*

**Abstract:** The article talks about the fact that inclusive education in the physical education classes of preschool educational organizations today is the most effective direction for the adaptation of young children to society and their health, and the formation of the "I concept".

**Keywords:** Adaptation, inclusive education, disabled, method, education

**KIRISH**

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kun olimlari maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtiruvchi metodologiyalarini ko'plab ishlab chiqayotganliklari barchamizga sir emas. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamlı ishlar amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda, maktabgacha yoshdagi bolalarning salomatligini mustaxkamlash, ularni jamiyatda komil inson bo'lib tarbiyalash maqsadida ko'plab pedagog kadrlarni jalb qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarini



zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish zarurdir. Maktabgacha ta'lismizini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'limdan ijtimoiy teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lismizni xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya to'g'risidagi" O'RQ-595-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lismizini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lismizini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

### **ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA**

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lismiz va tarbiya to'g'risidagi" O'RQ-595-sonli Qonunining birinchi bob 3-moddasida: alohida ta'lismiz olish ehtiyojlari bo'lgan bolalar — nogironligi bo'lganidan yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, oila, pedagoglar, mutaxassislar, jamiyat va davlatning alohida e'tiboriga muhtoj bo'lgan individual ehtiyojlarga ega bolalar;

**davlat maktabgacha ta'lismiz tashkiloti** — davlat tomonidan moliyalashtiriladigan va boshqariladigan hamda maktabgacha ta'lismiz va tarbiyaning davlat standartiga muvofiq maktabgacha ta'lismiz va tarbiya xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilot;

**inklyuziv ta'lismiz va tarbiya** — bolalarning alohida ta'lismiz olishga bo'lgan ehtiyojlarini hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta'lismiz va tarbiya olishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan jarayoni – deb aniq qilib ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur qonunning amalda bajarilishi bugungi kun jamiyatida Maktabgacha ta'lismiz muassasalariga katta ma'suliyat va ishonch beradi. Vaxolangki barkamol avlodni yetishtirib, ularni Vataniga xizmat qiladigan Komil inson qilib tarbiyalash, o'zligini anglab Men konsepsiyasini shakillantirish eng avvalo ta'lismizning boshlang'ich ostonasidan – maktabgacha ta'lismiz tashkilotining kamtargina tarbiyachi pedagoglarga bog'liqdir.

Maktabgacha ta'lismiz sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, maktabgacha yoshdagagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lismiz bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash ko'zda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'lismizni rivojlantirish, alohida ta'lismiz ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lismiz-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lismiz xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020 – 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lismizni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

### **MUHOKAMA**

Mamlakatimizda ishlab chniqilgan qonun xujjalarni ijrosini taminlash maqsadida 2020 – 2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lismizni rivojlantirish konsepsiyasini 2022-2023-yillarda amalga oshirish bo'yicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Maktabgacha ta'lismiz tashkilotlarida alohida ta'lismiz ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lismizni 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. Ishlab chiqilgan "Yo'l



“xaritasi” asosida erishilgan natijalar, maqsadli ko’rsatkichlar va tegishli davrga mo’ljallangan asosiy yo’nalishlardan bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Yurtimizdagi Qo’shma tipdagi Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtirilgan bo’lib, ijtimoiy himoyaga muxtoj tarbiyalanuvchilarni malakali pedagog kadrlar, jismoniy tarbiya yo’riqchilari yordamida jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida va ta’lim tarbiyaviy jarayonlarda jamiyatga moslashtirish, yangi innovatsion texnologiyalar orqali ular maxsus moslamalar (ko’tarish qurilmasi, pandus, tutqich v boshqalar) bilan adaptatsiyasi shakillantirilmoqda. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarning bilim olish huquqini inobatga olib, inklyuziv o’qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o’rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantirilib, alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo’lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar maktabgacha ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilmoqda. Inklyuziv ta’limda o’qitish usullari takomillashtirilib, ta’lim jarayoniga individuallashtirish tamoyillari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg’ulotlari inklyuziv ta’limning eng samarali sohasidan biri bo’lib, bu jarayonda aloxida extiyojga muxtoj bolalar sog’lomlashtirilib, jamiyatga moslashtiriladila. Inklyuziv ta’lim jarayonida o’quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashga, ularning jismonan sog’lom va baquvvat shakllanishiga, va nihoyat “Men konsepsiysi”ni shakillantirishga qaratilgan choralar – tadbirlarni ishlab chiqish bizning pirovard maqsadimiz hisoblanadi.

## NATIJA

Maktabgacha ta’lim tashkiloti jismoniy tarbiya mashg’ulotlarida inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga samarali ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo’lishlari uchun oilada yashashlari va o’z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday Inklyuziv ta’lim Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim olishi, o’zlashtirishda qiynalayotgan bo’lsa, o’qish va yozishga o’rganish uchun maxsus yordamga ega bo’lishi, ijtimoiy himoyaga muxtoj bolalarni adaptatsiyasini shakillantirishga, jamiyatga moslashishini kafolatlaydi.

## XULOSA

Maktabgacha ta’lim tizimida inklyuziv ta’limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog’lom bolalar qatoriga qo’shib sifatli ta’lim olishini ta’milagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Inklyuziv ta’limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi? -o’z imkoniyatini o’zi uchun kashf etish imkonini beradi - mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi; - dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi; - o’qishga bo’lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi; - O’zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi; - Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi; - Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo’qoladi. Inklyuziv ta’lim sog’lom bolalar hayotiga qanday ta’sir ko’rsatadi? -O’zlariga o’xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar; - Tengdoshlariga



g‘amxo‘rlik hissi uyg‘onadi; -Ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish – insonparvarlik hissi tarbiyalanadi; -O‘quvchilarда atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmat tarbiyalanadi -Yoramga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar -Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta’limga yo’naltirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari kun sayin ko’payib va takomillashib bormoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo’lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to’g’risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . – Казань, 2013
4. Буторина, О. Г. Об опыте воспитания и обучения детей с ограниченными возможностями здоровья / О. Г. Буторина // Воспитание школьников, 2010
5. Инклюзивная практика в дошкольном образовании. Современный образовательный стандарт / Т. В. Волосовец, А. М. Казьмин, В. Н. Ярыгин. – М.: Мозаика-Синтез, 2011. – 144 с.
6. D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o’quv va metodik qo’llanma 2014-yil
7. Sh.Shodmonova Maktabgacha ta’lim pedagogikasi – Toshkent, 2008